



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### O‘TKIR HOSHIMOV “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA REALIYALARNING BERILISHI

**Arifova Umida Abdumalikovna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti*

[umidaarifova2@gmail.com](mailto:umidaarifova2@gmail.com)

**Annotatsiya** *Mazkur maqola O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” asari — bu nafaqat hayot haqiqatlarini aks ettirgan badiiy yodgorlik, balki undagi jonli realiyalar til va tarjima olamining qiyin, ammo betakror manzaralarini ochib beradi. Maqolada muallif ushbu asarda milliy ruh, urf-odatlar va turmush haqiqatlarini ifodalovchi so‘zlarning qanday mahorat bilan berilganligi, ularning tilshunoslik va tarjimashunoslik ilmida qanday o‘rin tutishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, tarjima jarayonidagi jiddiy to‘siqlardan biri — milliy realiyalarning xitoy tillarda to‘liq ekvivalentining yo‘qligi muammosiga badiiy va ilmiy nuqtai nazardan yondashiladi. Aslida har bir realiya — bu xalqning ko‘zgusi, tarjimonning unga bo‘lgan munosabati esa haqiqiy ijoddir. Maqolada ana shu masalalar tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *realiya, milliy madaniy birliklar, kyim kechakka oid realiyalar, uy jihozlariga oid realiyalar, tarjima usullari.*

### ВЫРАЖЕНИЕ РЕАЛИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ УТКИРА ХАШИМОВА «ДУНЕНИНГ ИШЛАРИ» («ДЕЛА МИРА СЕГО»)

**Аннотация** *Данная статья посвящена произведению Уткира Хашимова «Дуненинг ишлари» («Дела мира сего») — не просто художественному памятнику, отражающему жизненные реалии, но и уникальному зеркалу, в котором живые реалии раскрывают сложные и неповторимые картины мира языка и перевода. В статье автор рассматривает, с каким мастерством в этом произведении переданы слова, выражающие национальный дух, обычаи и жизненные реалии, а также какое место они занимают в языкознании и переводоведении. Особое внимание уделяется одной из серьезных проблем перевода — отсутствию полного эквивалента национальных реалий в китайском языке. К этой проблеме даётся художественный и научный подход. Каждая реалия — это зеркало народа, а отношение переводчика к ней — подлинное творчество. В статье подробно анализируются эти вопросы.*

**Ключевые слова:** *реалия, национально-культурные единицы, реалии, связанные с одеждой, реалии, связанные с домашней утварью, способы перевода.*

Zamonaviy tarjimashunoslikda bugungi kunda ko‘plab masalalarga yechim topilmoqda. Shu jumlada jahon tarjimashunosligida milliylik va badiiylikni tarjimada qayta yaratish hamda tarjimada asliyatga xos badiiylikni saqlash masalalarini ilmiy o‘rganish, asarlarning



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yangi tarjima talqinlarini yaratish va mavjud tarjimalarning sifati va badiiy saviyasiga tanqidiy baho berish prinsplarini ishlab chiqish, sohadagi muammolarning kompleks ilmiy yechimlarini asoslash kabi ustivor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyodagi hech qaysi til alohida ajralgan holda taraqqiy etmagan, ular orasida har doim muayyan aloqa mavjud bo'lgan. Kelib chiqish jihatidan qarindosh, bir oilaga mansub tillardan qilingan tarjimalarda bunday munosabatlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida turk o'zbek tillarini keltirishimiz mumkin. Lekin xitoy tili bundan mustasno. Xitoy va o'zbek tillari tipologik, tizimli va madaniy jihatdan bir-biridan keskin farq qiladi. Bu farqlar tarjimada ekvivalentlikka erishishni mushkullashtiradi va tarjimondan lingvistik madaniy kompetensiyani, morfologik-sintaktik moslashtirish mahoratini, shuningdek, pragmatik moslashuvchanlikni talab qiladi. Samarali tarjima uchun faqat til bilimi emas, balki xitoy va o'zbek dunyoqarashi, etiketi va ramziy tizimlarini chuqur bilish zarur. Bu borada qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Xitoy tili izolyatsiyalovchi, tonli va iyeroglifik tizimga ega bo'lib, agglyutinativ, tonsiz va fonematik alifboga ega o'zbek tilidan keskin farq qiladi. Bunday tipologik masofa tarjimada ekvivalentlikka erishishni ob'ektiv qiyinlashtiradi.

Jahon tilshunosligi va tarjimashunosligida realiya tushunchasi muayyan xalqning milliy qiyofasini, uning ming yillar davomida shakllangan madaniy yuzini o'zida mujassam etadi. Bu — boshqa tillarda to'liq ekvivalenti topilmaydigan, o'zligini yo'qotmaydigan, har bir so'zida xalqning ruhini saqlagan sehrli bir olamdur. Realialar orqali biz xalqning tarixiy taqdirini, ijtimoiy tuzumini, urf-odatlarini va udumlarini, uning qadimdan davom etib kelayotgan turmush tarzini o'qiymiz. Ular xuddi bir ko'zgudek qaysi xalqqa qarasangiz, o'sha xalqning o'ziga xos qiyofasi, tushunchalar olami, borliqqa bo'lgan qarashlari aks etadi.

Muqobilsiz leksikaga eng yaqin tushuncha – aynan realiyadir. Ammo tarjimashunoslik va etnomadaniyat chorrahasida turgan ushbu hodisa hanuzgacha o'zining to'liq talqinini topmagan, yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Balki shuning uchundirki, realialar har safar yangi talqin, yangi yondashuvni talab etadi. Ular — bir xalqning hayot tarzi, turmush falsafasi, madaniy merosi va tarixiy kamolotiga xos bo'lgan, boshqa bir xalq uchun esa begona, sirli va tushunarsiz bo'lgan ob'ektlarni nomlaydi. Bu so'zlar yoxud iboralar shunchaki til birliklari emas, balki o'ziga xos kalitlardir kimda qaysi kalit bo'lsa, o'sha dunyoga eshik ochadi[1;148].

Xitoy tarjimashunosligida realiya tushunchasiga nisbatan turli xil qarashlar mavjud. Xususan, Nobel mukofoti sovrindori yozuvchi **Mo Yan (莫言)** qalamiga mansub asarlar xitoy tarjimashunosligida realialarni – aniqrog'i, madaniy jihatdan yuklangan so'zlarni o'rganish uchun eng ko'p murojaat etiladigan manbalardan biriga aylangan. Uning “Qizil jo'xori” romani misolida deyarli bir darslik yaratish mumkin undagi har bir sahifa, har bir epizod, hatto eng oddiy ko'ringan bir tafsilot ortida butun bir xalqning madaniy olami, uning udumlari va e'tiqodlari yashiringan[2;138].





**Suy Jun (许钧).** U xitoylik taniqli tarjimashunos olimlardan biri bo'lib, uning nomi, ayniqsa, tarjima nazariyasi, fransuz adabiyoti tarjimasini hamda tarjimashunoslik fanining metodologik asoslarini ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq. U shunday olimlardanki, ularning qalamidan chiqqan har bir satrda nafaqat chuqur bilim, balki so'zga, tilga va madaniyatlararo muloqotga bo'lgan cheksiz hurmat sezilib turadi. Suy Junning ilmiy merosi – bu xuddi ikki dunyo o'rtasida ko'prik bir tomonda G'arbning falsafiy va lingvistik an'analari, ikkinchi tomonda esa Sharqning betakror so'z san'ati va tarjima falsafasi turadi[3;178].

Badiiy asarning milliyliigi ko'p hollarda milliy xos so'z (realiyalar)da o'z aksini topadi[4;26]. Bunday so'zlar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy hususiyatini ochib beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etar ekan, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi[5;47].

O'zbek romanlarida xalqning milliy xarakteri, milliy kolorit bosh rejada turadi. O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ham milliy kolorit, o'sha xalqning milliy xarakteri urf-odatlari o'ziga xos liboslari, milliy o'ziga xoslik asar personajlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, bu asar hozirgi kunda N. Valiyeva tomonidan xitoy tiliga tarjima qilingan bo'lib, tarjimon asardagi badiiylik, milliylik o'ziga xoslikni saqlab qolishga harakat qilgan.

“Dunyoning ishlari” asaridagi realiyalarning xitoycha tarjimada qanday berilganligiga e'tibor qaratamiz: Shu bodom tagida **supa** bor edi.. 那棵杏树下有一条长椅。 **Supa** – hovli, bog' va umuman ochiq yerda o'tirish, yotish turish uchun tuproqdan chorburchak shaklida ko'tarib qurilgan joy [6; 761]. Keltirilgan misoldagi supa so'zi joy nomini ifodalovchi realiya bo'lib kelgan. Tarjimada xitoy tilida **supa** so'zini长椅 changyi ya'ni, baland stul deb berilgan. **Oq surp yaktak** kiygan, mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan go'rkov yuziga fотиha tortib o'rnidan turadi. 有一个穿着白衬衫, 留白胡子的老白挖墓人说奥咪 (把双手打开摸脸) 就占了起来 - Jumlada keltirilgan yaktak so'zi bu realiya bo'lib, izohli lug'atda bir qavat astarsiz kiyim. Uzun ko'ylak, oldi ochiq erkaklar ko'ylagi deb keltirilgan. Xitoy tilida 白衬衫 Bai chenshan ya'ni oq ko'ylak deb tarjima qilinadi.

**Sandiqqa** bosayapsizmi?[7;11]. 都存起来吗? (14页) **Sandiq-** quti, yashik turli buyumlarni, bisotlarini solib qo'yishga mo'ljallangan, ochilib yopiladigan qopqoqli, qulf kalitli yashik shaklidagi uy ro'zg'or buyumi [8;521]. Xitoy tilida sandiq so'zi tushirib qoldirilgan. 嫁妆箱 jiazhuangxiang kelinlar o'zi bilan olib keladigan sarp qutisi, yoki 乌兹别克族花木箱 wuzibiekezuhuamuxiang o'zbek milliy naqsh o'ymakorlik qutisi. Bunday so'z va tushunchalar o'zbek tiliga xos realiyalar bo'lishdan tashqari, ko'pchiligi kelib chiqish nuqtai nazaridan ikkala tilda ikki hil yondoshuv talab qiladi. Realialarni oddiy (so'zma-so'z yoki ekvivalent) usulda boshqa tilga o'tkazib bo'lmaydi. Bu alohida kreativ va tahliliy yondashuvni talab qiladi. Darhaqiqat, realiyalar tarjimondan alohida yondoshuvni talab



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qiladi. Tarjima jarayonida tarjimon asar tili, shu xalqqa xos milliy xususiyatlarni chuqur bilishini talab qiladi. N.Valiyeva “Dunyoning ishlari” asarini xitoy tiliga tarjima qilishda asarning milliy o‘ziga xosligini to‘laqonli aks ettirgan va badiiy tarjima usulidan foydalangan. Bu orqali u realiyalarni xitoy o‘quvchisiga tushunarli, ammo asl ruhini saqlagan holda yetkaza olgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С. 148.
2. 沈阳师范大学学报：社会科学版页码：134-140页
3. 许钧 (Xu Jun) 《红高粱家族》;莫言;文化负载词;葛浩文. 译林出版社, 2009.178页
4. Hamidov.X. O‘zbek qissa va romanlari turk tilida monografiya - Toshkent.: “EFFECT-D”, 2022. – 26 b.
5. Hamroyev. H. Milliy xos so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima// Tarjima madaniyati(maqolalar to‘plami) – Toshkent.: 1982. – 158 b.
6. Madvaliyev. A, Xudayberganova. D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Fanlar akademiyasi va G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: 2022. – 761 b.
7. Hoshimov. O‘. Dunyoning ishlari – Toshkent.: “GLOBAL BOOKS”, 2021. – 11 b.
8. Madvaliyev. A, Xudayberganova. D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Fanlar akademiyasi va G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: 2022. – 521 b.